

Zamonaviy, nufuzli, nomdor nashr

Dunyoning eng rivojlangan davlatlari tarixidan shu narsani anglash mumkinki, ularda ilm-fan va ta'lim tizimiga e'tibor yuqori darajada bo'lgan. Chunki bugungi kunda ilm-fan va ta'lim taraqqiyotning muhim omili ekanligi oynadek ravshan bo'lib qoldi. Shunday ekan, uning taraqqiyot darajasini, rivojlanish me'yorlarini belgilaydigan matbaa nashrlari katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida ham bunday yo'sindagi qator jurnallar borligi ma'lum. "Zamonaviy ta'lim" (Sovremennoe obrazovanie) nomi bilan chop etiladigan ushbu jurnal Toshkent viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasii oshirish instituti (hozirda hududiy markaz)ning nashri sifatida Surxondaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda muntazam ravishda nashr etib kelinmoqda. Mana, qo'limizda uning yangi, 7-soni. Demak, ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yiliga bag'ishlangan va undagi vazifa va topshiriqlarning ijrosiga qaratilgan maxsus son.



Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi Rayosatining 2015-yil 20-martdagi 214/2 sonli qarori bilan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Unda asosan, pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dolzarb mavzudagi maqolalar chop etib boriladi. U RINTs ma'lumotlar bazasiga shuningdek, SubrLeninka ilmiy elektron kutubxona bazasiga ham kiritilgan. Jurnal ta'lim tizimining muhim mezonlari uning taraqqiyotini belgilovchi omillarni nazarda tutgan holda ushbu ruknlarni o'z ichiga oladi: Oliy ta'lim, ta'lim psixologiyasi, kasbiy ta'lim, ta'lim texnologiyalari, ta'limning axborot resurs tarkibi. Ushbu ruknlarga mansub bo'lgan maqola mualliflari haqida ham muxtasar ma'lumotlar berib boriladi. Jurnal ikki tilda chop etiladi. Jurnalning bu galgi soni TIQXMMI "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrasini professor-o'qituvchilarining maqolalari bilan muzayyan etilgan.

Jurnaldagi dastlabki maqola TIQXMMI kafedrasining professori, muhtarama ustozimiz Shoumarova Muhayyo Shoumarovnaning qalamiga mansub. Maqola shunday nomlangan: "Muhandis-pedagogik ta'limning tarkib topishi va hozirgi holati". Maqolada asosan muhandis-pedagogik ta'limning TIQXMMI sharoitida shakllanishi hamda hozirgi holati va bu jarayonda mazkur institutning "Pedagogika, psixologiya va o'qitish" metodikasi kafedrasining o'quv ilmiy faoliyati yoritilgan. Shuni e'tirof etish joizki, pedagogika psixologiya va o'qitish metodikasi kafedrasini 2020-2021 - yangi o'quv yilini yuqori saviyadagi ishlar bilan boshlashdi. Pandemiya davrida jamoa jam bo'lib ishlashi imkoni bo'lmasa-da kafedra a'zolari, zamonaviy ta'lim, ilmiy, amaliy, ommabop jurnalning 7-sonida o'zlarining ilmiy maqolalari bilan qatnashib, nazariy tarzda ilmiy-pedagogik jarayonni asoslab berishga xizmat qilishdi. Dunyo universitetlari reytingida o'zining salohiyati, pedagogik faoliyati, ta'lim texnikasi bilan alohida rutbaga ega bo'lib kelayotgan TIQXMMI ning muhandis pedagoglar tayyorlash masalasiga ham e'tibori yuksak darajada ekanligi haq.



Maqolada ta'lim tizimida muhandis-pedagog kasbining tashkil etilishi va ravnaqi borasida e'tiborga molik mulohazalar ilgari surilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida hunar-texnika ta'limi uchun muhandis-pedagoglar tayyorlash ishi 1972-yili Buxoro yengil sanoat va oziq-ovqat texnologiyalari institutida boshlangan. Muhandis-pedagoglarni tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri, pedagogik va texnik tayyorgarliklarni aloqasini to'g'ri yo'lga qo'yish ekani ma'lum. Bu sohada institutimizda alohida "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrasini 1982-yildan o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, pedagogika fanlari nomzodi K.D.Mirsaidov, Z.Ismailova, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Asamova, pedagogika fanlari nomzodi dotsent D.Himmataliev va pedagogika fanlari nomzodi dotsent M.Baybaeva kafedra mudiri lavozimida ishlaganlar. 2018-yildan hozirgi kunga qadar pedagogika fanlari doktori, professor Zuhra Kabulovna Ismoilova kafedraga rahbarlik qilib kelmoqda.

Maqola muallifi shuningdek, kafedra faoliyatiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan murabbiylarning nomlarini ham keltirib o'tgan. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, kafedrada 2001-yildan beri kasb-hunar

ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura faoliyat ko'rsatib keladi. Faoliyat mobaynida erishilgan ushbu yutuqlarni ham qayd etishni o'rinli hisoblaymiz. Kafedrada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida 500 dan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, ulardan 10 ta monografiya, 4 ta darslik, 20 ga yaqin o'quv-uslubiy ishlanmalar. VOS va SCOPUS xorijiy ilmiy jurnallarda ham qator maqolalar chop etilgan. O'ziga xos samarali mehnat va hamkorlik natijalarini kafedra professor o'qituvchilari rahbarligidagi ikki nafar prezident stipendiyasi sohibi, ikki nafar pedagogika kasbiy ta'lim fanlaridan olimpiada g'oliblari va bir qancha nomdor stipendiya sohibligiga erishganlar misolida ham ko'rish mumkin.



Har bir pedagogning malakasini oshirish, bilimlarini mustahkamlash va dars berish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida darsni tashkil etishlarini inobatga olgan holda, Pedagogik mahorat maktabi malaka oshirish kursi 2006 yildan tashkil etilgan bo'lib hozirda ham o'z faoliyatini olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6 -sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 5812-sonli farmoni asosida professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilgani ham maqolada e'tirof etilgan.

Shuningdek, jurnalda "Zamonaviy o'qituvchining pedagogik mahorati va pedagogik texnikasini oshirishda boshqaruv san'atidan foydalanish"(professor Z.K.Ismoilova), "Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi"(D.O. Ximmataliev), "Oliy ta'lim muassasalari ixtisoslik fan o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish"(D.A. Mustafoeva) "Professional ta'lim tizimi uchun pedagoglar tayyorlash: muammo va takliflar"(P.M.Maxsudov), "Integratsiyalashgan axborot-ta'lim muhitida rahbar va pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari"(dotsent R.K.Choriev), "Oliy o'quv muassasalarida tarmoq interfaol ta'lim vositalarini qo'llash asoslari" (X.E.To'ychiev) kabi bir qator dolzarb mavzudagi maqolalar ham berilganki bu nomdor va zamonaviy nashrning nufuzini yanada oshirishga xizmat qilishi aniq. Pedagogik jamoaning ilmiy - nazariy qarashlarining tahliliy maqolalar sifatidagi jamlanmasi soha taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan birga ayni paytda ilm-fan, ta'lim, amaliyot va ishlab chiqarish uyg'unligiga hamda fanlararo integratsiyalashuvga zamin hozirlashi tayin.



TIQXMMI matbuot xizmati